



## O‘ZBEK TILI DARSLARDA NUTQIY KO‘NIKMALARNI INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANGAN HOLDA TASHKIL QILISH

**Yusupova G.**

*Nukus DPI O‘zbek tili kafedrası, dotsenti*

**Polvanova Sh.**

*NDPI O‘zbek tili kafedrası doktoranti*

**Tayanch so‘zlar:** mashq, topshiriq, paronim, “Domino” usuli, “Kim notiq?” usuli. metod, ko‘nikma, “Juftini bilasizmi?” usuli, ekspert.

**Ключевые слова:** упражнение, задание, пароним, метод «Домино», «Кто говорит?» метод. метод, навык, «Знаете ли вы пару?» метод, эксперт.

**Key words:** exercise, task, paronym, "Domino" method, "Who is the speaker?" method. method, skill, "Do you know the pair?" method, expert.

### **РЕЗЮМЕ:**

Maqolada o‘zbek tili darslarda nutqiy ko‘nikmalarni interfaol usullardan foydalangan holda tashkil qilish masalalari o‘rganilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В статье рассматриваются вопросы организации разговорной речи на занятиях по узбекскому языку с использованием интерактивных методов.

### **SUMMARY:**

The article examines the issues of organizing spoken language in Uzbek language classes using interactive methods.

Har bir davr ta’lim oldiga o‘z vazifasini qo‘yadi. Yuz yil oldingi ta’lim mazmuni bilan bugungisining o‘rtasida ancha farq bor, xususan, o‘zbek tili o‘qitish masalasida ham. Aslida til o‘qitish muayyan o‘zgarmas talablarga ega bo‘ladi, biroq zamonning ehtiyojiga ko‘ra mazkur mezonlar bosqichma-bosqich takomillashtiriladi. Bugungi ona tili ta’limi grammatizmdan voz kechib, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. To‘g‘ri, grammatik ma’lumotlarsiz ona tili ta’limini tasavvur etib bo‘lmaydi, biroq tilning tashuvchilariga quruq grammatik qoidalar orqali ham tilni o‘rgatib bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘zbek tili ta’limining asosiy muammosi nutqiy ko‘nikmalarni qanday qilib samarali rivojlantirishga erishishdir. Bu borada shuni ta’kidlash kerakki, har bir hodisa muayyan tizimga ega ekan,



nutqiy ko'nikmalar ham shu tizimga mos rivojlantirilish zarur. Zero, insoniyat tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida «Nimani o'qitish va qanday o'qitish kerak?» degan savolga javob izlab kelgan va hamon izlamogda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tilini o'qitishni samarali bo'lishiga erishish uchun amaldagi o'quv materiallarini bu boradagi muammolarni inobatga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi shuki, o'quvchida, avvalo, o'quv soati uchun ajratilgan har bir daqiqadan, darsliklarda berilayotgan har bir ma'lumotdan unumli foydalanish ko'nikma hamda malakasini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi. Bu borada o'zbek tilini o'qitishda o'quv topshiriqlardan samarali foydalanish, mashq va topshiriqlarga munosabatni ham tahliliy o'rganish lozim. Jumladan, I. Davronov ning algoritmik mashqlar haqidagi fikr-mulohazalari bu boradagi yangicha yondashuvlardan biridir. Biroq o'zbek tili fanini o'qitishda shunday mavzular bo'ladiki, ularning ta'limida didaktik o'yinlardan ko'ra an'anaviy amaliy ishlar orqali kerakli natijaga erishish mumkin bo'ladi. Ta'kidlash kerakki, to'g'ri talaffuzning imloga va aksincha, to'g'ri yozishning og'zaki nutqqa ta'siri bo'lishi tabiiy.

Til sathlarini o'rgatishda o'quv materiallarini o'quvchilarga qaysi metod orqali tushuntirish samarali natija beradi? Quyida to'g'ri talabga doir o'quv materiallarini o'qitishda qo'l keladigan samarador usullar ustida ishlab, aytilgan fikrlarni ayrim misollar bilan asoslashga harakat qilindi. Har qanday ma'lumotni qay darajada o'zlashtirish tinglovchining xohish-irodasiga bog'liqdir. Psixologik nuqtai nazardan darsda, ayniqsa, yangi dars bayonida o'quvchini qiziqtirish lozim. Aks holda, harakat besamar ketishi mumkin. Shu ma'noda nutqiy ko'nikmalarni tizimli rivojlantirishda ham turli noan'anaviy dars usullaridan foydalanish mumkin.

Quyida ayrim mavzularni noan'anaviy shaklda o'rgatish ta'limi xususida to'xtalamiz:

“Juftini bilasizmi?” usuli ham o'quvchini tez fikrlashga, topqirlikka undaydi. O'yinni amalga oshirish uchun o'quvchilarga biror bir til sathiga oid birliklarning ma'lum qismi beriladi. O'quvchilar esa uni to'plashi lozim bo'ladi. Mazkur o'yindan tilning barcha sathlarida foydalanish mumkin. “To'g'ri talaffuz”, leksika va morfologiya bo'limlarida o'quvchilar tovush, so'z haqida muayyan bilimga ega bo'ladilar. Ma'lumki, so'z turkumlari va so'zning ma'nolarini bilishning ahamiyati katta. Chunki bu o'quvchi savodxonligining asoslaridan biridir. O'qituvchi o'quvchilarga ma'nodosh so'zlarga oid bilimlar hosil bo'ladigan shu o'yinni o'tkazishi mumkin.

O'quvchilarga jarangli – jarangsiz undoshlar xato qo'llangan so'zlar beriladi. O'quvchilar so'z tarkibidagi xato qo'llangan undoshlarning juftini topib yozishlari kerak: kitop – kitob, bunyotkor – bunyodkor, tussiz – tuzsiz, tog' – toq, o'rig – o'rik, shavqat – shafqat.

O‘yin musobaqa tarzida ikki o‘quvchi orasida yoki guruhlar o‘rtasida o‘tkazilishi mumkin.

1. Paronim so‘zlardan foydalanib orfoepiya o‘qitish ham maqsadga muvofiq, chunki har doim bu so‘zlar ikki qismdan iborat bo‘ladi. Masalan, berilgan so‘zlarning paronim juftini topish buyuriladi. Ma’lumki, paronim so‘zlar talaffuzdosh so‘zlardir. Bu – talaffuz mashqlari o‘tkazishda qo‘l keladi.

Kafe –	amr –	kafe –kofe	amr – amir
Afzal –	devon –	afzal – abzal	devon – dovon
Razm –	bob –	razm – ramz	bob – bop
Sada –	tup –	sada – sado	tup – tub

Juft va takroriy fe’llarga oid ham shunday topshiriqlar beriladi:

Bajarilishi:

O‘ynab –	o‘ynab-kulib
yayrab –	yayrab-yashnab
qochdi –	qochdi-ketdi
aytdi –	aytdi-qo‘ydi
qo‘llab –	qo‘llab-quvvatlamoq
o‘ylab –	o‘ylab-o‘ylab
gapira –	gapira-gapira
yig‘lay –	yig‘lay-yig‘lay

“Domino” usuli. Bunda o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Jamoalardagi har bir o‘quvchi ishtirok etadi. O‘qituvchi tomonidan aytilgan topishmoqning javobini birinchi topgan jamoa o‘yinni boshlaydi. Guruhlar parta boshidan navbat bilan chiqaveradi. Ish sinf taxtasida bajariladi. “Domino”ning sharti shunday: birinchi chiqqan ishtirokchi bir bo‘g‘in yozadi va o‘tiradi. Navbatdagi jamoa vakili unga bo‘g‘in qo‘shganda so‘z hosil bo‘lishi kerak. O‘yin shunday davom etaveradi. Belgilangan vaqtda javob topmagan jamoa o‘yindan chiqadi.

Namuna: xum-don-li-bos-ma-na-sim-li-kop-

2. “Kim ko‘p so‘z topadi?” o‘yini o‘quvchilarni qiziqtirish va idrokini tekshirib ko‘rish maqsadida tashkil etiladi. Natija kutilgandan ham yaxshi chiqdi. Bu asosan, leksika bo‘limini o‘qitishda qo‘l keladi. Mashg‘ulot ko‘rgazmali vositalar, rasmlardan foydalanilgan holda olib boriladi. YA’ni ayrim o‘quvchilar rasmdan 18 tagacha so‘z topgan bo‘lsa, ba’zilar 7 tagina so‘z yoza olgan. Ba’zi o‘quvchilarning bulut ortidagi osmonni, erdagi kashta suratini, maqbara tarkibidagi minora va gumbazlarni ham ko‘ra olganligi, aksariyat o‘quvchilarning ko‘rinib turgan narsalarni ham idrok eta olmasligi ma’lum bo‘ldi.

Ushbu topshiriq bolalarda idrokni shakllantiradi. Ona tili fanini san’at bilan bog‘laydi. Bunday topshiriqlarni bajarib ko‘nikma hosil qilgach, boshqa suratlarni ko‘rganda ham ularga shunchaki emas, sinchkovlik bilan qarashga o‘rganadi.



Bola ko‘rgan narsalarni o‘zi bilgancha nomlaydi, yoddan yozadi va bo‘g‘inlarga ajratadi. Bunda o‘quvchining so‘z qo‘llashi, tanlashi hamda imloviy savodxonligi ochiq namoyon bo‘ladi. Bo‘g‘in haqida olgan nazariy ma‘lumotlarini amaliyotda qo‘llab ko‘radi, mustahkamlaydi.

10. “Kim xattot?” usuli. Bu usul orfografiya bo‘limini o‘qitishda, xususan, yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘l keladi. Sinf uch guruhga bo‘linadi. Qur’a tashlash yo‘li bilan ulardan biri ekspert, qolgan ikkisi bahslashuvchi jamoalarga ajratiladi. Ekspert guruhi jamoasi x va h undoshi ishtirok etgan so‘zlarni aralash holda aytaveradi, bu so‘zlardan bir jamoa tarkibida x undoshi ishtirok etgan so‘zlarni, ikkinchi jamoa tarkibida h undoshi ishtirok etgan so‘zlar qatorini yozib boradilar. Belgilangan vaqtda jamoalar ishi to‘xtatiladi. Ekspertlar jamoasi ikkala guruh ishlarini tekshirib beradi. Ish yakunida o‘qituvchi uchala guruh ishlarini ko‘rib chiqib baholaydi.

11. “Kim notiq?” usuli. Mazkur usul gapirish (nutq so‘zlash) ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘llaniladi.

O‘qituvchi ekspert bo‘lib turadi. Uchta jamoaga uchta o‘ unlisi ko‘proq ishtirok etgan she‘riy matn beriladi. Guruhlar kelishib olib, bittadan notiq tayinlaydi. Ular matnlarni o‘qiydi. Guruhning boshqa a‘zolari o‘ tovushi ishtirok etgan so‘zlarni farqiga ko‘ra ikkiga ajratib chiqadi. Qaysi jamoa ikkala topshiriqdan ham ball olsa, g‘olib bo‘ladi.

Bundan tashqari o‘quvchilarni axborot texnologiyalaridan foydalangan holda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish mumkin. [https://read.bookcreator.com/7VyjWD4pQhYuT5q7SLB8j0I988s1/YdSdGcaGQCOx5cgYWPz\\_PA/jnnUoJXoTseMC2HUVk9AUA](https://read.bookcreator.com/7VyjWD4pQhYuT5q7SLB8j0I988s1/YdSdGcaGQCOx5cgYWPz_PA/jnnUoJXoTseMC2HUVk9AUA) quyidagi ilovaga kirish orqali o‘quvchilar berilgan topshiriqlarni bajaradilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, nutqiy ko‘nikmalarni tizimli rivojlantirish tamoyillari o‘quv topshiriqlarida o‘z aksini topishi lozim. Ular mashg‘ulotning asosini tashkil etuvchi mashq, savol va topshiriqlar tarkibiga singdirilmas ekan amaliy ahamiyatga ega bo‘lmay qolaveradi.

#### Adabiyotlar:

1. Davronov I. Algoritmik mashq va uning xususiyati.// Filologiya va uslubiyot masalalari. Ilmiy – uslubiy maqolalar to‘plami.–Buxoro: Buxoro, 2010. – 188-193- b.
2. Toshxo‘jaeva D. O‘zbek tili darslarida matnni qayta hikoyalash orqali o‘quvchi nutqini o‘stirish // Til va adabiyot ta‘limi. – T., 1999. - № 1. – B.11-15.
3. To‘xtaeva Q. Uzluksiz ta‘lim tizimi til o‘rganuvchilarining til bilish darajalariga qo‘yiladigan talablar. // O‘zbekistonda xorijiy tillar. 2017, №5 (19). <https://journal.fledu.uz/>
4. Adilova S. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (oliy ta‘lim muassasalarining rusiyzabon guruhlarida): Ped. Fan. ...nom. ... diss. –T., 2004. –160 b.
5. Bobojonov F., Rajabova K. O‘zbek tili. – T.: Mumtoz so‘z, 2017.
6. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda tizimli yondashuvning ilmiy-metodik asoslari (5-7-sinf ona tili darslari misolida). Disser.2021 yil.